



SHAXSDA OILAVIY HAYOT TO‘G‘RISIDAGI TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY, PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasи professori v.b.,
psixologiya
fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Maqolada oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, yoshlarda oilaviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ijtimoiy, psixologik shart - sharoitlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, shaxs, oilaviy hayot, tasavvur, oilaviy qadriyat, munosabat, identifikatsiya, rollar taqsimoti, hayotiy vaziyat, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-psixologik xususiyat.

Shaxsning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari bo‘shliqda yuzaga kelmasdan, balki uning ruhiy-ma’naviy imkoniyatlariga muvofiq holda shakllanadi va rivojlanadi. Ushbu holat ularni doimo shaxsning ichki psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini bildiradi. Boshqa so‘z bilan aytganda, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar doim shaxslilik xususiyatiga ega bo‘lib, uning o‘zgarishiga binoan o‘zgaradi. Jumladan, shaxsning ehtiyoj va qiziqishlari, psixologik jarayonlari (idrok, tafakkur, hayol kabilalar) xulq-atvorning motivlari uning ijtimoiy mavqeい va rollariga muvofiq tarzda o‘zgarib turadi. Ushbu o‘zgarishlar esa o‘z navbatida oilaviy hayot haqidagi tasavvvurlarning mohiyati va tabiatiga ta’sir qilib, ularni dinamik-funksional jihatdan o‘zgartiradi. Masalan, yosh bilan keksaning, ayol va erkakning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari doim o‘zgacha bo‘ladi va bunda ularning ijtimoiy muhitda tutgan o‘rnlari hamda ichki psixologik imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Shu bois oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar umumiylar tarzda emas, balki konkret holdagi shaxsga taalluqliligidan kelib chiqib tadqiq qilinishi lozim. Bunda, birinchidan, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning uzlaksizligi tamoyiliga va ikkinchidan, psixologiyaning muhim tamoyili hisoblangan shaxslilik tamoyiliga amal qilingan bo‘ladi. Shunday qilib, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar yoshi va jinsiga monand holda, o‘z ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Oilaviy hayot haqidagi dastlabki tasavvurlar shaxsning o‘z oilasida yuzaga keladi va unda tutgan o‘rniga muvofiq holda mukammallahadi. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning birinchi maqsadi va vazifasi bu, shaxsning oilaviy hayot haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni qayerdan olishini aniqlashdan iborat. A.T.Suvorova olib borgan tadqiqotiga ko‘ra, o‘quvchilar oilaviy hayot borasidagi ma’lumotlarni dastlab o‘z oilalarida, ikkinchi o‘rinda esa ommaviy axborot vositalaridan, uchinchi o‘rinda tengdoshlari va nihoyat boshqa odamlar hamda turli hil vaziyatlarni tahlil qilish asosida o‘zlashtirishlari ma’lum bo‘ldi. Biz uchun bu tadqiqotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu oila haqidagi bilimlarni hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish asosida olishlaridir. Bu ko‘rsatkich eng oxirida keltirilgan bo‘lsa ham, bizning fikrimizcha, shaxs oilaviy hayot haqidagi tasavvur va tajribalarni xuddi mana

shu vaziyatlarni tahlil qilish asosida oladi va bu holatda ularning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning sub'yekti ekanligi namoyon bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, oilaviy hayot doim dinamikada bo'lib, uning a'zolari uchun doim hal qilinishi muhim bo'lgan u yoki bu vaziyatlar vujudga keladi. Mana shu vaziyatlarni hal qilibgina, oila oila sifatida mavjud bo'ladi. Shaxs ana shu vaziyatlarni hal qilishda bevosita ishtirok etadi va o'z psixik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda unga qo'shgan hissasiga ko'ra oilaviy hayot haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning shakllanishida oiladagi emosional - hissiy shaxslararo munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu munosabatlar oila haqidagi tasavvurlarning ijobiy yoki salbiy, keng va tor bo'lishi kabilarni belgilab beradi. Oiladagi emosional-hissiy shaxslararo munosabatlarga bog'liq holda bir qator tadqiqotlarni ko'rsatishicha, shaxsning emosional sohasi va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxs sifatlari shakllanar ekan. Oiladagi ota-onaning o'zaro munosabatlari asosida shakllangan ushbu sifatlar uzoq vaqtgacha shaxsda saqlanib qoladi va shaxsning, ayniqsa o'z oilasining boshqa a'zolari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, ota-onalarning o'zaro munosabatlariga tegishli bo'lgan xususiyatlar bolalar tomonidan oila qurbanlaridan keyin takrorlanar ekan. E.K. Vasilyevaning ko'rsatishicha, to'liq bo'limgan oilada yoki ota-onasi o'rtasida salbiy munosabatlar xukm surgan oilada voyaga yetgan yigit va qizlarning oilasi ko'p hollarda buzilib ketadi. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni shakllanishida oiladagi shaxslararo emosional hissiy munosabatlar ham muhim rol o'ynaydi. Ularning muhimligi shundaki, emosional hissiy shaxslararo munosabatlar oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning shaxs tomonidan xulq-atvorning va u yoki bu holdagi idrokning motivlari sifatida qabul qilinishini belgilab beradi. Ushbu ma'noda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning yigit va qizlar tomonidan motivlar sifatida qabul qilinishi yoki inkor etilishi psixologik jihatdan muhim hisoblanadi. Bir qator tadqiqotlarda ma'lum bo'lishicha, yoshlar o'zlarining bo'lajak turmush o'rtoqlarini qanday hususiyatlarga ega bo'lishlari lozimligi haqida muayyan tasavvurga ega ekanliklari, lekin o'zlarini er (yoki xotin) sifatida qanday xususiyatlarga ega bo'lishlari yoki ega bo'lmasliklari haqidagi tasavvurlarni yetishmasligi namoyon bo'ladi. Ular ko'proq er (yoki xotin) oilada uy yumushlarini bajarishda kim nima qilishi haqida tasavvurga ega ekanlar.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari birinchi navbatda ularning o'z oilalaridagi ijtimoiy - psixologik muhitga bog'liq bo'ladi. Ushbu ma'noda oilali erkak va ayollarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining tabiatи oilaning ichki hayotida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ko'pchilik ota va onalar mehnat sohasi bilan bog'liq bo'lgan hayotlarining birinchi o'ringa qo'yishar ekan. Bunda mehnat va o'z shaxsiy hayotlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar boshqa qadriyatlar orasida ustivorlik qiladi. Mehnatdan qoniqish olish hissi esa ular faoliyatining yetakchi motivlari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu holatlarga ega bo'lgan er va xotinlarni fikrlari o'rganilganda oilaviy mablag'ni taqsimlashda, oila a'zolarining to'g'ri kundalik rejali hayotlarini tartibga solish, uyda tartib va saramjonlik, oila a'zolarining ovqatlanishini

tashkil etish ayol kishining vazifasi ekanligi ta'kidlanadi. Erkaklarning vazifasi esa oilani moddiy jihatdan ta'minlashdan iboratligi e'tirof etiladi.

Shunday qilib, shaxsning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari xususiy va umumiy bo'lishi bilan birgalikda muayyan ruhiy-ma'naviy imkoniyat hamda xususiyatlarga ega bo'lgan shaxsga xosligi bilan xarakterlanadi. Bu holat ularning konkretligi va individual-tipologikligini belgilab beradi. O'z davrida ana shu konkretlik va individuallikdan ularning uzlusizligi va shaxsligi kelib chiqadi. Ularning uzlusizligida oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning doimiyligi ya'ni shaxsning butun antogenetik taraqqiyoti davomida rivojlanadi va mukammalashib boradi. Ushbu rivojlanish va mukamallashishda bиринчи navbatda shaxsning ijtimoiy hayot faoliyatining real sub'yekti sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni o'rghanish maqsadga muvofiqdir. Bunda oilaviy ijtimoiy hayotga shaxsning kirishi va unda qo'shgan hissasi muhim o'rin o'lchovlardan biri bo'lib qoladi.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar oiladagi xulq-atvorni, munosabatlarni va rollarni taqsimotini «loyihalashtirish» xususiyatiga ega bo'lib, ular muayyan tarzdagi jins va yoshga ko'ra differensiatsiyani vujudga keltiradi. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning bunday «loyihalashtirish» xususiyatiga muvofiq holda tasavvurlar kognitiv, emosional-hissiy va xulqiy komponentlarga bo'linadi. Bundagi muhim psixologik holat shundaki, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning «loyihalashtirish» imkoniga ko'ra ular shaxs tomonidan qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi mumkin bo'ladi. Shuning uchun oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning xulq-atvorning yoki oilaviy hayot faoliyatining real motivlariga aylanishida ularning «loyihalashtirish» xususiyati bilan vositalanadi. Bu hol oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarni o'zida emosional-hissiy, irodaviy va xarakterlogik xususiyatlarni mujassamlantirganligi namoyon bo'ladi. Rus olimi S.V.Kovalevning fikricha, yoshlarda oilaviy hayot borasidagi adekvat tasavvurlarning yetarli emasligi sababli ular oila qurganlaridan keyin oilaviy munosabatlaridan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi.

Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda oilaviy hayot haqidagi to'g'ri tushunchalarini shakllantirilishi bo'lajak oilalar mustahkamligi va farovonligini ta'minlaydi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni oldini oladi, bu esa har jihatdan barkamol, sog'lom avlodni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Карабанова Ж. В. Влияние полоролевых представлений родителей и формирование личностных особенностей одаренных девочек: Автореф... дис... к. психол. н. – М.: МГУ, 2002. – 24 с.
2. Каримова В.М. Социальные представления об узбекской семье у юношей и девушек: Автореф. ... д-ра психол. наук. – Т.:ТГПИ,1994. – 40 с.
3. Сорокина Т.Ю. Особенности брачно-семейных установок студенческой молодежи. Автореф... дис... к. психол. н. - Самара: СНЦ РАН, 2007. – 22 с

4. Файзиева М. Х. Оила барқарорлигига шахслараро муносабатлар таъсирининг ижтимоий - психологик хусусиятлари (эр-хотин мисолида): Психол. ф. н... дис... автореф. – Т.: ЎзМУ, 2005. – 25 б.
5. Фомичева Л.Ф. Образ родителей и представленность отношений с ними у подростков // Психологическая наука и образования. – Москва. 2005. – №3. – С.26-40.
6. D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva. Oila psixologiyasi. T.: Tafakkur bo'stoni, 2015. 256-b.
7. Abdullaeva D.U. Social factors affecting child education psychological factors. // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. Texas, USA. December 2022. P.154-156.
8. Abdullayeva D.U. Establishing a relationship between a mother and a teenage child. // Frontline social sciences and history journal. Volume 03 №2. 2023. P 18-26. - <https://frontlinejournals.org/journals/index.php/fssj/article/view/314>
9. Абдуллаева Д. (2023). Оилавий тарбия бола шахси ривожланишини белгиловчи омил сифатида. // Педагогики и психологии в современном образовании. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8963>
10. Абдуллаева Д. (2023). Оилада ота-она ва фарзанд муносабатларининг ўзига хослиги. - Б. 226-232. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ota-ona-va-farzand-munosabatlarining-ziga-hosligi/viewer>
11. Abdullayeva D.U. Appearance of ethnopsychological factors in the relationship of mother and child in the uzbek family. American journal of social sciences and humanity research. Volume 03 №12. 2023. - P. 170-175.
12. Абдуллаева Д. У. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда тасаввурларнинг ўрни. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022. № 5. Б. 307-310.